CHINGIZ AYTMATOVNING "OQ KEMA" QISSASIDA INSON RUHIYATI VA TABIAT UYG'UNLIGINING TALQINI

Jalolova Gulbahor
Termiz davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ulkan adib Chingiz Aytmatovning "Oq kema" qissasidagi badiiy mahorat, inson ruhiyati va tabiat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik masalalari tahlil qilingan. Asardagi Bola, Mo'min chol va Orozqul obrazlari orqali jamiyatdagi ma'naviy inqiroz va shaxs fojiasi ijtimoiy-falsafiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, asardagi "Oq kema" va "Shoxdor Ona bug'u" timsollarining ramziy-metaforik ahamiyati hamda adibning psixologik tasvir uslubi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Chingiz Aytmatov, "Oq kema", inson ruhiyati, badiiy mahorat, mifologizm, ramz, fojia, tabiat va inson, ma'naviy tanazzul, poklik.

Аннотация. В данной статье анализируется художественное мастерство Чингиза Айтматова в повести «Белый пароход», исследуются вопросы неразрывной связи человеческой психологии и природы. Через образы Мальчика, деда Момуна и Орозкула освещаются социально-философские аспекты духовного кризиса общества и трагедии личности. Также раскрывается символико-метафорическое значение образов «Белого парохода» и «Рогатой матери-оленихи», рассматриваются методы психологического изображения в творчестве писателя.

Ключевые слова: Чингиз Айтматов, «Белый пароход», психология человека, художественное мастерство, мифологизм, символ, трагедия, природа и человек, духовный упадок, чистота.

Annotation. This article analyzes the artistic skill of Chingiz Aitmatov in the novella "The White Ship" and examines the inextricable link between human psychology and nature. Through the characters of the Boy, Old Man Momun, and Orozkul, the socio-philosophical aspects of the spiritual crisis in society and the tragedy of the individual are highlighted. Furthermore, the symbolic-metaphorical significance of the "White Ship" and the "Horned Mother Deer" is revealed, and the writer's psychological depiction methods are explored.

Keywords: Chingiz Aitmatov, "The White Ship", human psychology, artistic skill, mythologism, symbol, tragedy, nature and human, spiritual decline, purity.

Adabiyot – jamiyat vijdoni, badiiy so‘z san’atkorlari ana shu vijdonni harakatga keltirib turishdek mas’uliyatni, burchni ado qilar ekan, ular yurak sadolari, yozuvchilik vijdoni hayqiriqlariga quloq osishga majburdirlar. Jahon va milliy adabiyotimiz namunalariga e’tibor qaratsak, o‘quvchining qalbidan chuqur o‘rin olgan, jamiyat vijdonini aks ettirgan nodir asarlar talaygina. Bu asarlarda yozuvchilarimiz hayotning aniq manzarasi, asl mohiyatini, chinakam ruhini ifodaladilar va shu bilan o‘zlarining jamiyat, kitobxon, kerak bo‘lsa asarlariga, badiiyatga olib kirgan o‘z qahramonlari oldidagi burchlarini halol ado etdilar, zero “adabiyot bag‘rida ham o‘ziga xos bir guvullab qaynab yotgan hayot bor, biznikiga o‘xshash taqdirlar, tuyg‘ular, dramalar bor...”[1. 287]

Aytmatovda tabiat shunchaki fon emas, balki qahramonning ruhiy holatini aks ettiruvchi "tirik sezgi"dir. Masalan, "Qiyomat"dagi bo‘rilar qismati yoki "Oq

kema"dagi bug'ular fojiasi orqali inson ichki dunyosidagi parchalanish va ma'naviy inqiroz tasvirlanadi. Tabiatdagi har bir detal – shamolning uvillashi, daryo shovqini yoki cho'l sukunati qahramonning ichki "men"i bilan muloqotga kirishadi. Adib qahramonlarining ko'p gapirmasligi, ularning munosabatlaridagi sirlilikni oshiradi. Ular ko'pincha o'z tuyg'ularini harakatlari yoki nigohlari orqali ifodalashadi. Masalan, Tanabay va uning oti Gulsari o'rtasidagi "so'zsiz muloqot" har qanday balandparvoz gapdan kuchliroq psixologik ta'sirga ega. Bu o'quvchini qahramonning ichiga kirishga, uning o'rniga o'ylashga majbur qiladi.

Insonning inson degan nomga munosib bo'lish tamoyilini butun ijodi davomida targ'ib qilib, ajoyib asarlari bilan jahon badiiy tamaddunidan joy olgan va adabiyot rivojiga katta hissa qo'shgan ulkan yozuvchi Chingiz Aytmatov ijodining durdonalaridan biri hisoblangan "Oq kema" qissasi inson ruhiyati, jamiyatning ma'naviy inqirozi va shaxs fojiasini ijtimoiy-falsafiy rakursda tahlil etuvchi yaxlit badiiy tizimdir. Asar markazida turgan yetim bolakay obrazi orqali adib insoniy poklik, beg'ubor orzular va real hayotning shafqatsiz to'qnashuvini mahorat bilan ochib beradi. Bolakayning ichki dunyosi ikki yirik ma'naviy qutbga – Issiqko'l bag'rida suzib yurgan orzulardagi "Oq kema"ga hamda ajdodlar xotirasi va muqaddas qadriyatlar ramzi bo'lgan "Shoxdor Ona bug'u" afsonasiga tayanadi. Biroq bu ideal dunyo real voqelikdagi ma'naviy qashshoqlik, Orozqul timsolidagi shafqatsizlik va Mo'min cholning irodasizligi bilan to'qnashganda, tizimli fojia yuzaga keladi. Aytmatov asarda tabiat va inson o'rtasidagi uzviy bog'liqlikning uzilishi jamiyatni qanchalik og'ir axloqiy tanazzulga olib kelishini ko'rsatadi. Bolaning "baliq bo'lib suzib ketishi" shunchaki o'lim emas, balki nopoklikka, xiyonatga va qadriyatlarning oyoqosti qilinishiga nisbatan bildirilgan keskin isyon, ruhning o'z beg'uborligini saqlab qolish uchun qilgan so'nggi harakatidir. Shu

tariqa, povest nafaqat bir bolaning ayanchli qismati, balki butun insoniyatni mas'uliyatga, halollikka va ma'naviy vorislikni asrashga undovchi chuqur falsafiy ogohlantirish sifatida namoyon bo'ladi. Asarning badiiy qudrati ham aynan uning har bir o'quvchini o'z vijdoni oldida hisobot berishga majbur qila olishidadir.

"Oq kema" tom ma'nodagi g'oyaviy, badiiy xalqchil asardir. Xalqchillik – san'at va adabiyotning badiiyligini belgilovchi muhim fazilatlardan biri. Badiiy asarning xalqchillik harakteri, birinchidan, xalq hayotining eng dolzarb masalalarini o'rtaga qo'yish, har bir voqea-hodisani xalq manfaatlari nuqtai nazaridan yondashib, ilg'or dunyoqarash va yuksak g'oyaviylik asosida yoritish, ikkinchidan, keng xalq ommasi uchun tushunarli bo'lgan badiiy til va uslubdan, rang-barang shakl va janrlardan samarali foydalanish kabi muhum prinsiplar bilan belgilanadi.[2. 142]

Yozuvchining "Oq kema" qissasi poklik va adolat, xunrezlik va uning axloqiy ildizlari, milliy an'analar va insoniy qadriyatlar, tarix va bugungi kun talqiniga bag'ishlangan navbatdagi eng go'zal asarlaridan biridir. Asarda bobosi kabi oqko'ngil, ertaklari kabi samimiy va ularning ro'yobga chiqishiga ko'z tutgan bola; nihoyatda halol, samimiy va haqgo'y bo'lishiga qaramay qizi, nabirasi tinchligi va osoyishtaligi deb o'zlariga qaram va mute bo'lib qolgan, shu bois, hatto Ona bug'uni o'ldirishgacha borib yetgan Mo'min bobo; odam qadri-yu tabiat, milliy qadriyat-u, urf-odat barchasiga bir pul deb qaraydigan, o'zgalar ustidan hukmronlik qilishni kasbga aylantirgan vahshiy sifat O'razqul singari obrazlarga duch kelamiz. Asar qahramoni Bola xarakterining ayrim qirralari haqida oz bo'lsada to'xtalib o'tdik. Bolaning birdan bir suyangan insoni bu uning milliy qadriyatlar ruhida bolani tarbiyalagan, bolaning ertaklari muallifi bo'lmish Mo'min

chol obraziga ham ta'rif berib o'tish o'rinlidir. Yozuvchi Mo'min chol xarakterini quyidagicha tasvirlaydi: "...Mo'min chaqqon bo'lib tug'ilgan. Ehtimol, uning yolg'iz ustunligi shunda ediki, u qanday o'tirdim, bilib gapirdimmi, qanday javob qildim, qanday kulimsiradim deb tashvishlanmas, birovlarning oldida obro'si to'kilishidan cho'chimasdi. Mo'min mana shu ma'noda, o'zi sezmagan holda kamdan kam uchraydigan baxtli odam edi. Ko'p odamlarni kasallik emas, o'z nazdida o'zini o'zligidan kattaroq qo'yishdek xudbinlik, alamzadalik balosi kemirib ado qiladi. (Dono, baobro', xushro'y, buning ustiga qattiq qo'l, adolatli va jasur degan nom ham chiqarishni kim istamaydi) Mo'min esa bunday emasdi".[3. 201] Mo'min chol Ona bug'u avlodidan bo'lib, bu bilan u g'oyat faxrlanar va bolani ham shu ruhda tarbiyalashga harakat qilardi.

Chingiz Aytmatovning "Oq kema" qissasi insoniyatning ruhiy-ma'naviy qiyofasi, bolalikning beg'ubor olami va ijtimoiy muhitning inson taqdiriga ta'sirini teran tadqiq etuvchi fundamental asardir. Muallif bosh qahramon - ismi sharifsiz qoldirilgan bolakay obrazi orqali inson qalbidagi eng nozik tebranishlarni, umid va orzuning hayotbaxsh kuchini, shu bilan birga, kattalar olamidagi shafqatsizlikning ma'sum qalbga beradigan og'riqli zarbalarini mahorat bilan tasvirlaydi. Asardagi Oq kema va Shoxdor Ona bug'u (maral) timsollari shunchaki badiiy detallar emas, balki ular insoniylik, olijanoblik, tabiat bilan uzviy bog'liqlik va ruhiy poklikning yuksak ramzlaridir. Aytmatov bu metaforalar orqali o'quvchini ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi azaliy kurash maydoniga olib kiradi.

Asarning ijtimoiy-falsafiy qatlamida ma'naviy yemirilish, mansabparastlik, qo'pollik va insoniy qadriyatlarga nisbatan bepisandlik kabi illatlar bolaning pokiza dunyosini qanday parchalashi ko'rsatiladi. Mifologik motivlar va tabiat tasvirlari asarga o'zgacha bir falsafiy ruh bag'ishlab, milliy ildizlar, avlodlar

davomiyligi va insoniy mehr-oqibatni asrash naqadar muhimligini ta'kidlaydi. Yakunda bolakayning fojiasi bu shunchaki bitta taqdirning mahvi emas, balki jamiyatning ma'naviy tanazzuli haqidagi ulkan ogohlantirishdir..

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Нодира Афоқова. Ботиндаги илоҳий ҳакам. Озод Ватан саодати. Т.: "Адиб", 2013.
2. Рашидов А. Чингиз Айтматов олами. -Т.: Ўқитувчи, 2011-й.
3. Айтматов Ч. Танланган асарлар. -Т.:.Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978 й.
4. Nodira Ofoq. Jamila – Aytmatovning go'zali // Tafakkur jurnali, 2019 yil, 2-son.
5. Boltayeva I. Chingiz Aytmatov asarlarida portret tasviri ("Jamila" qissasi misolida) // Solution of Social Problems in Management and Economy, International scientific-online conference
6. Usmonov, M. Qissa janri poetikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2012
7. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIIY TALQINLARI. IMRAS, 7(6), 56–60.
8. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Xonimova Maryam. (2024). BUYUK ZAMONDOSHLAR, MANGU YASHAGAY. *PEDAGOGS*, *57*(1), 132–138.
9. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, *11*(12), e2676.
10. Zafariddin, Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.

11. Farida, X., To'xtayeva, D., Murtazayeva, M., & Abdurahmonova, D. (2025). SAB'AI SAYYOR" DOSTONINING BOBLARI BO'YICHA TAVSIFI. *Shokh Articles Library*, *1*(2).
12. . Dilshoda, A. (2025). MUHAMMAD YUSUF IJODINING ADABIYOTIMIZDA TUTGAN O 'RNI. Global Science Review, 1(1), 388-392.
13. .Xurramovna, Q. G., & To'raqulovna, D. M. (2025, December). "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDAGI ONOMOSTIK BIRLIKLARNING BADIIY-POETIK AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*. (Vol. 1, No. 5, pp. 58-61).
14. Saidmuradova, S., & Madina, T. L. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 147-152.